

ANTROPONIMLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA UNING O'RGANILISHI

Fayzimatova Nodiraxon Adxamjon qizi

QDPI o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Antroponim, antroponimika, ism, laqab, taxallus, familiya, funksional-lisoniy xususiyatlari, antroponimik lug'atlar.

Annotatsiya

Maqolada o'zbek tili antroponimiyasi va uning o'rganilishi haqida so'z boradi. Turkey tilshunoslikda kishi nomlariga bag'ishlangan tadqiqotda atoqli otlar tushunchasi, turdosh otlarning atoqli otga o'tishidagi jarayon (onomastika) hamda ularning funksional-lisoniy xususiyatlari, antroponimik lug'atlar haqida ma'lumot berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma'lumki, *antroponim* (yunoncha: *antropos* - *antropos* + *onoma-atoqli ot*) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri. Ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi *antroponimiya* deb yuritiladi. Antroponimika yoki ismshunoslik esa onomastika (nomshunoslik)ning kishi atoqli otlari (antroponimlar) ning paydo bo'lishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi bo'limidir. O'zbek antroponimlarini ilmiy asosda to'plash va o'rganish ishlari XIX asr oxiri-XX asr boshlarida boshlangan edi[1].

Dastlab, Ye.T.Smirnov, keyinchalik N.S.Likoshin va boshqa rus geografiya jamiyati Turkiston bo'limining a'zolari (V.F.Oshanin, A.Samoylovich kabilari) o'zbekcha ismlarni to'plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bilan shug'ullanganlar. N.Ostroumov, A.Samoylovich, S.Oldenburger, V.Y.Nalivkin, M.Nalivkina kabilarning ishlarida o'zbekcha ismlar va laqablarning etimologiyasi, etnografiyasiga oid ayrim masalalar o'rganilgan edi. N.S.Maliskiy esa Toshkent shahridagi mahalliy aholi ismlari, urf-odati masalalari bilan shug'ullangan. S.Ibrohimov, M.Rahmonlar esa o'zbekcha ismlar va familiyalarning imlosiga doir kuzatishlar olib borganlar. O'zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish 1960 yillardan boshlangan[2]. Xuddi shu davrda D.Abdurahmonov, O.Nosirov, F.Abdullayev, M.Shamsiyeva, A.Ishayev X.Doniyorov kabi olimlarning o'zbek antroponimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e'lon qilingan edi. O'zbek antroponimikasining asoschisi, hech shubhasiz, E.A.Begmatov sanaladi. U 1962-1965 yillar davomida o'zbek antroponimiyasi bo'yicha juda boy material to'pladi va antroponimlarning lingvistik, ekstralingvistik xususiyatlari, ismlar, laqablar, taxalluslar, familiyalar, ota ismlarning leksikasi, strukturasi, grammatik xususiyatlari bo'yicha qator salmoqli maqolalar e'lon qildi. Shu asosda bu olim 1965 yilda "O'zbek tili antroponimikasi" degan mavzuda nomzodlik ishini himoya qilgan edi. Shundan keyin E.Begmatovning ismshunoslikka oid "Nomlar va odamlar", "Kishi nomlari imlosi", "O'zbek ismlari imlosi", «Literaturniye imena i familii uzbekskix avtorov v russkoy transkripsii», "O'zbek ismlari", "Ism chiroyi" kabi juda ko'plab asarlari nashr etilgan[3].

O'zbek antroponimlarining semantikasi va etimologiyasi masalalarini Y.Menajiyev, X.Azamatov, D.Abdurahmonov va E.Begmatovlar "Ismingizning ma'nosi nima?" nomli risolasida amaliy jihatdan hal etishga intildilar. O'zbekcha ismlarning ruscha yozilishi, imlosi muammolariga bag'ishlangan

S.Ibrohimov, N.Mamatov, F.Kamolov, R.Jumaniyozov, Y.Pinxasov, T.Mirzayev, E.Begmatov kabi olimlarning maqolalari matbuot sahifalarida e'lon qilingan edi. E.Begmatovning "Kishi nomlari imlosi", "O'zbek ismlari imlosi", «Literaturniye imena i familii uzbekskix avtorov v russkoy transkripsii» kabi asarlari ismshunoslikning ana shunday amaliy masalalariga bag'ishlanganligi bilan e'tiborlidir.[4].

XX asrning 70-yillarida o'zbek nomshunosligi mustaqil soha sifatida shakllanishi bilan uning tarkibidagi antroponimikaga (ismshunoslikka) oid tadqiqotlar ko'lam ham kengaydi. Shu davrdan boshlab o'zbek antroponimiyasi xilma-xil yo'nalishda o'rganiladigan bo'ldi. Masalan, G.F.Blagova, A.S.Tolstova, Q.Karimov, E.Begmatov kabi olimlarning tadqiqotlari tarixiy yozma yodgorliklarda qo'llanilgan antroponimlar tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, E.Begmatov, R.Qo'ng'urov, A.Jumayev, G'.Sattorov singari olimlarning ilmiy kuzatishlari antroponimlarning yasalishi, o'zlashma antroponimlar strukturasi, ismlarning grammatik va semantik xususiyatlari tahliliga oid edi.

Mamlakatimizda bajarilgan nomshunoslikka oid ishlarning ayrimlari antroposistemalarning qo'llanilish xususiyatlari, antroponimik seriyalarning hududlarda tarqalish chastotasini aniqlashga bag'ishlangan edi. Bu jihatdan L.I.Royzenzon, E.B.Magazanik, L.I.Royzenzon, A.Isayev, L.I.Royzenzon, A.Boxoxo'jayev, R.Rahimov, T.S.Yeroxina, M.N.Ramazonova, V.B.Suzanovich, V.A.Nikonov kabi olimlarning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. E.Begmatov, V.A.Nikonov, L.V.Danilova kabi olimlarning izlanishlari esa o'zbek antroponimlarida jins tushunchasining ifodalanish usullari (polyarizasiya) tahliliga bag'ishlangan edi.[5]

O'zbek antroponimlari orasidagi o'zlashma qatlam, undagi forscha-arabcha, ruscha ismlar tahlili E.Begmatov, S.I.Zinin, N. A. Sharopov singari olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. O'zbek tilidagi laqablarning o'ziga xos funksional-lisoniy xususiyatlariga bag'ishlab E.Begmatov, E.Qilichev, Y.Ibrohimov, B.Yo'ldoshev kabi olimlar ilmiy maqolalar e'lon qilganlar. O'zbek antroponimik tizimining tarkibiy qismi bo'lgan taxalluslar, ularning qo'llanilish xususiyatlari, turlari, matn tarkibidagi vazifasi kabi masalalarga oid B.Qoriyev, Yo.Is'hoqovlarning ilmiy maqolalari yaratilgan. Keyinchalik bu muammoga bag'ishlab T.Qorayev, R.Vohidovlarning risolalari e'lon qilindi.

XX asrning 90-yillariga kelib o'zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o'rganildi. Masalan, Sh.Yoqubov "Navoiy asarlari onomastikasi" mavzuda nomzodlik ishini himoya qildi, undan oldin B.Bafoev "Navoiy asarlari leksikasi" nomli monografiyasida Navoiy asarlaridagi kishi ismlari va geografik nomlarni semantik va statistik jihatdan tahlil qilgan edi.

O'zbek antroponimikasining yana bir muammosi poetik yoki badiiy antroponimika masalalari bilan bog'liq. Ya'ni badiiy asarlarda qo'llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqat nominativ funksiyani emas, balki bir qancha funksional-uslubiy xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Mana shu masala keyinchalik o'zbek antroponimikasida maxsus o'rganildi. Masalan, SamDUda.

E.B.Magazanik shu mavzuda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi, keyinchalik monografiya nashr ettirdi. Bu ishda antroponimlarning lingvistik kategoriya sifatidagi tabiati, onomastilistika va uning rus adabiyotshunosligida o'rganilish darajasi masalalari o'rganilgan. Olim o'z tadqiqotida badiiy asarlarda qo'llangan antroponimlarni juda keng kontekstda olib qaraydi, badiiy asar syujeti, konfliktini namoyon etishda kishi ismlarining o'rni masalasini asosli yoritadi. Masalan, olimning talqiniga ko'ra, A.S.Pushkin asarlarida qahramon familiyasi bilan ismi o'zaro fonetik jihatdan ohangdoshlik xususiyatiga ega: *Yev-gen-iy O-neg-in* kabi. Xuddiy shunday fonetik ohangdoshlik M.Y.Lermontov qahramonlarining familiyasi va ismiga ham xosdir: *Yevgeniy Arbenin* kabi. Mustaqillik yillarida o'zbek antroponimikasiga oid tadqiqotlar doirasi yana ham kengaydi. Masalan, S.Rahimov Xorazm vohasi misolida mintaqaviy (regional) antroponimiya masalalariga doir kuzatish ishlari olib bordi, shu asosda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.[6]

N.Husanov XV asr o'zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy

xususiyatlarini tadqiq etib, ikki qismdan iborat monografiya yaratdi va shu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. M.Tillayeva Xorazm onomastikasi tizimining tarixiy-lisoniy tadqiqini "Avesto" asari onomastikasi bilan qiyosiy yo'nalishda olib borib, yaxshi natijalarga erishdi. Olimaning xulosasiga ko'ra, "Avesto"da uchraydigan kishi nomlari nafaqat butun eroniy, balki turkiy, somiy xalqlar antroponimikasiga ta'sir qilgan. Shuning uchun bugungi o'zbek ismlari orasida *Jamshid*, *Isfandiyor* kabi bir qancha avestoviy antroponimlar yoki "Avesto" ta'sirida yuzaga kelgan kishi nomlarini uchratamiz.

O'zbek ismlari nihoyatda rang-barang bo'lib, ular mazmunan boy va tarixiy xususiyatga ega. Bu lug'atda o'zbek xalqi orasida qoyilib kelinayotgan 14600 ga yaqin ismlar jamlangan. Lug'atning asosiy maqsadi ismlarning ma'nosini ko'rsatish hamda ota-onalarga yangi tug'ilgan farzandlari uchun o'zlariga ma'qul bo'lgan ismlarni tanlashga yordam berishdan iboratdir. Shu bilan birga bu lugat o'zbek ismlarining kirillisa va lotin yozuvida yozilishida har bir kishiga, qolaversa, rasmiy idora xodimlariga ko'mak berib, bu borada qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Lug'at "Nashriyotdan" (3-4-betlar), "Lug'atning tarkibi va tuzilishi" (5-6-betlar), "Alloh ismlari" (7-11-betlar), "Ismlar lug'ati" (12-582-betlar), "Ismlar tarkibida doimo takror holda keluvchi ba'zi so'zlar ma'nosi" (582-586-betlar), "O'zbek ismlari etnografiyasi" (587-594-betlar), "Ism va familiyalar tanlashning ayrim muammolari" (595-604-betlar), "Foydalanilgan adabiyotlar" (605-bet) qismlarini o'z ichiga oladi. Kitob oxirida uning muallifi E.A.Begmatovning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqidagi qisqacha ma'lumotlar ilova qilingan (606-bet). Lug'atdan namuna: **Uyg'un, Uyg'un** (o'z.) – kelishgan, kelishimli; kutilgan, orzu qilingan (442-bet). **Xiromon, Xiromon** (ft.-o'z.) – chiroyli boyli, boyi-bastikelishgan, xushqad; nozik, latif (462-bet). **Xolbeka**, (ft.-o'z.) – badanida xol bilan tug'ilgan, beklar avlodiga mansub qiz (463-bet) kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. Abloqulova Ya. O'zbek tili onomastikasining makroko'lami. O'zbek tili va adabiyoti. 2007.
2. Саттарав Г. Ф. Антропонимия Татарской АССР: Автореф. дис... докт. филол. наук. Казань, 1975, С. 67.
3. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курсовой урок. - М.: Гнозис, 2002. С. 84.
4. Элиев Нэсен. Умумий антропонимика проблемлери. Баку, 1985, С. 72.
5. Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С. Кубрякова, В.З. Демьянков, Ю.Г. Панкратц, Л.Г. Лузина. - М.: Филол. ф-т МГУ им. М. В. Ломоносова, 1997. С. 245.
6. Морковкин В. В. Лексическая многозначность и некоторые вопросы ее лексикографической интерпретации
7. Nodirovna, Aliyeva Nargiza. "THE PHENOMENON OF EUPHEMISM AND ITS STUDY IN LINGUISTICS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1460-1462.
8. Rahimovna, Otaboyeva Mazmuna, and Karimova Vasila Vahobovna. "Graduonymy Of Activity Verbs In Uzbek And English Languages." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 1372-1377.
9. Rahimovna, Otaboeva Mazmuna, and Jurayeva Zulayho Shamsiddinovna. "CREATING GRADUONYMIC ROWS IN VERB SEMANTIC CATEGORIES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.10 (2022): 322-326.
10. Kamolaxon, Ismoilova. "INFLUENCE OF WORDS FROM THE FIELD OF "IT" ON THE UZBEK LANGUAGE AND ITS LINGUISTIC ANALYSIS." *Confrencea* 7.7 (2022): 35-37.

11. Omonov, B. (2022). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ГЕОЛОГИЯ СОҲАСИГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.
12. Maxmudjonovich, Ataxojayev Toxirjon. "CONTEXTUAL APPROACH IN TEACHING ENGLISH." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 1193-1197.
13. Mahmudjonova, H. (2022). GREAT UZBEK WRITER ABDULLA AVLONIY'S VIEWPOINTS ON EDUCATION AND UPBRINGING. Scienceweb academic papers collection.
14. Tirkashev, D. (2023). METAPHOR AS AN IMPORTANT LITERARY DEVICE IN "PICTURE OF DORIAN GRAY" BY O. WILDE. *Gospodarka i Innowacje*, 35, 237-239.
15. Махсудова, У. (2022). ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СЕМАНТИКО-КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА К ЯЗЫКУ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 3, 138-142.
16. Osarova, N. (2022). GAME AS AN ACTIVITY AT THE FOREIGN LANGUAGE LESSON AS ONE OF THE BASIC WAYS OF LEARNING ENGLISH AT PRIMARY SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 1110-1116.
17. Rahimovna, N. R. (2023). DIFFERENT STYLISTIC DEVICES USED IN RIDDLES IN UZBEK AND ENGLISH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(04), 32-36.
18. Sodiqova, S. (2021). THE IMPLEMENTATION OF SPEAKING STRATEGIES IN DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(4).
19. Tukhtasinova, Z. (2020). The Study of Russian Loanwords in the Uzbek Language. *TURKOLOGY IN THE EXPANSES OF EURASIA: CONTINUITY OF GENERATIONS*.
20. Gofurova, M. (2023). AN ELLIPTICAL CONSTRUCTION IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 19-21.
21. D.R.Xoshimova. (2022). LINGUOCULTUROLOGICAL STUDY OF THE USE OF ALLUSIONS IN ENGLISH. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(11), 320-323.
22. SHaxnoza, N. (2022). THE ROLE OF BORROWINGS IN THE DEVELOPMENT OF INTERLINGUAL COMMUNICATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(10), 270-274.
23. Gulomovna, Khatamova Ziyoda, and Ismailova Hilola Inomovna. "Project Method in Teaching English." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 7 (2019).
24. Mukhiddinova (Abdullayeva) Dilafruz Mansurovna. "THE ISSUES OF THE MODERN BUTLERIANA". *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, vol. 11, no. 10, Oct. 2022, pp. 290-3,
25. Otaboyeva, Mazmuna Rakhimovna. "THE STUDY OF GRADUONYMY IN WORD GROUPS AND THE PRINCIPLES OF FORMING GRADUONYMIC SERIES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.1 (2023): 175-184.
26. Rahimovna, Otaboyeva Mazmuna. "SIMILARITY AND DIFFERENCES ASPECTS OF GRADUONIMIC SERIES FORMED BY SEMANTIC CATEGORIES OF VERBS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.4 (2023): 505-508.

27. Rajapova, M. (2021). BADIY DISKURSDA KOGNITIV METAFORALARNING ISHLATILISHI. *Scienceweb academic papers collection*.
28. Malika, R. (2021). ISSN: 2249-7137 Vol. 11.
29. Moxinur, A. (2022). "Toast" concept in different language system.
30. Muxtarovna, A. D., & Inomovna, K. N. THE FACTORS AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN THE FAMILY.
31. Alixonova, D. M. (2021). THE SOCIAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN THE FAMILY. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1335-1338.
32. Muxtarovna, A. D. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF PHYSICAL EDUCATION CHILD LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(12)*, 178-182.
33. Alixonova, D. M. (2021). THE SOCIAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN THE FAMILY. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 1335-1338.
34. Ochildiyeva, H. (2023). NUTQNI ALOQA VOSITASI SIFATIDA RIVOJLANTIRISH. *Scientific Bulletin of NamSU--NamDU ilmiy axborotnomasi 2023-yil_3-son*.
35. Ochildiyeva, H. (2022). Lexical and Phraseological Means of Expressing Ethical Evaluation of a Person in Russian and Uzbek Languages. *MIDDLE EUROPEAN 120 SCIENTIFIC BULLETIN*.